

A.I. HAYITOV

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA
VA INTEGRATSIYASI**
(Uslubiy qo'llanma)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

A.I. HAYITOV

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM
PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA
VA INTEGRATSIYASI**

(Uslubiy qo‘llanma)

TOSHKENT - 2021

Tuzuvchilar

A.I. Hayitov – “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrası o’qituvchisi.

Taqrizchilar:

X.R. Sanakulov – Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrası dotsenti;

K.A. Abrorxonova Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrası mudiri PhD;

Uslubiy qo‘llanma Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika univerversiteti o‘quv – uslubiy kengashining 2021 yil 11 dekabrdađi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

I Bob. Pedagogika faning maqsad va vazifalari

1.1. Pedagogika fani maqsadi va uning asosiy kategoriyalari.....	5
1.2. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning mazmuni va tamoyillari.....	21

II Bob. Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar

2.1. Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsion usullarni qo'llash va samaradorligini oshirish omili sifatida.....	27
2.2. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'ziga xosligi va qo'llanilishi..	35
2.3. Muammoli ta'lim – rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.....	43

III Bob. Boshlang'ich sinflarning o'quv faoliyatini integratsiyalash ta'lim samaradorligi omili sifatida

3.1. Boshlang'ich sinflarning o'quv faoliyatini integratsiyalash ta'lim samaradorligi omili sifatida.....	56
3.2. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasi.....	72
3.3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fanlarni integratsiyalashgan usulda ochiq dars ishlanmalarini tuzish ko'nikmasini shakllantirish.....	82

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....90

Ilova.....92

KIRISH

Ta'lim oluvchilarni ilm-fan va texnikaga doir zamonaviy ilmlarga ega bo'lishi, zamonaviy axborot texnologiyalari haqida bilishi hamda boshlang'ich sinflardagi fanlarni integratsiyalash olishi va ta'lim jarayoniga tadbqiq qila olishi, pedagogik texnologialardan va integratsiyalsh usullaridan foydalanish ko'nikmasi, noan'anaviy darslarni tashkil eta olishi va darslarni integratsiyalab o'tishni tashkil eta olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, faoliyatga nisbatan kreativ va integrative yondashuvini rivojlantirishdan iboratdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan va o'zlashtirilishi taklif etilgan mazmun bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning asosi hisoblanib, ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda yetakchi vositalardan biridir. Shu bilan birga o'qitish, o'rgatish va o'qitish vositalari, ta'lim jarayonini axborot kommunikatsion va integratsion yondashuv asosida boshqaruvning nazariy asoslari, pedagogik texnologiyalarning yo'nalashlari, muammolari va yechimlari, boshlang'ich sinflardagi fanlarni integratsiyalash muammo, yechimlari va istiqbollari yoritilgandir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan va o'zlashtirilishi taklif etilgan mazmun ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning asosi hisoblanib, ushbu faoliyat ta'lim samaradorligini oshirish uchun yetakchi vosita hisoblanadi.

Ushbu metodik qo'llanmada, Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirish, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi pedagogik, integratsion faoliyat samaradorligining shartlaridan bir ekanligi hamda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish yo'llari keltirilgan.

I BOB. PEDAGOGIKA FANING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

Reja:

1. Pedagogika fani maqsadi va uning asosiy kategoriyalari.
2. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari.

Tayanch so'zlar: pedagogika, maqsad, vazifa, ob'yekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. Pedagogika fani maqsadi va uning asosiy kategoriyalari.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida - «bola» va gogike - «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika - ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.


Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yoʻnalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining obʻyekti - yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogika fanining predmeti - taʼlim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini taʼminlashga alohida hissa qoʻshadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi oʻrin tutuvchi gʻoyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilgʻot xorijiy tajribalar asosida taʼlim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi.



2-rasm. Pedagogika fanining asosiy vazifalari

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga eʼtibor qaratiladi:

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim katego-riyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.



3-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'qitish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

2. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anotomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni o'rganishga yordam beradi.

Gigiena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishga nazariy va amaliy g'oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o'rgatish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlani-shini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika - pedagogikaning kontseptual masalalari va amaliy jihatlarni tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xoj jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Metodika - xususi fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-shroitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi - xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunslilikning o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo‘lib, muzey muhitida ta’lim-tarbiya berish yo‘llarini tadqiq etadi. Muzezdagi mazkur ma’rifiy yo‘nalish bilan shug‘yullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta’lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta’limning antropologik modeli va taexnologiyasini o‘rganuvchi fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog‘liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho‘qqisi - «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va taexnologiyasini tadqiq etadi.

3. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta’minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va o‘tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funktsiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me’yorlovchi). Birinchisi ob’yektni nazariy jihatdan ifodalashni ko‘zlasa, keyingisi - tadqiqotchi uchun aniq mo‘ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi - nazariy va me’yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta’rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida; pedagogika sohasidagi

tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot ob'yekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi: pedagogikani ob'yektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot ob'yektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xil qo'llanilishi;

pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;

tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati; pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi; pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti - faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati - bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi - metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik

tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi - metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin» degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi - umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur muammo ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ularning to'laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. O'z navbatida pedagogika fani boshqa fanlar kabi yangi-yangi faktlar, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o'z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to'g'risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida

talqin qiladilar. Shu o‘rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o‘zgartirish metodlari to‘g‘risidagi ta’limot» ekanligini e’tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo‘yadilar.

Pedagogika fani metodologiyasi - jamiyatning rivojlanishi s haroitida uzluksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi, pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, ta’lim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta’minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini

ta'minlashdagi o'рни va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba- sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish

murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi.

Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

- ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

- yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

- to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil

etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida

foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

1.2. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning mazmuni va tamoyillari

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari.
2. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi
3. Pedagogik texnologiya tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, pedagogik texnologiya, metodologik asos, pedagogik texnologiya tuzilma, tamoyil.

1. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi-uning o'z oldiga maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishidir, deb ta'kidladik.

Tabiiy savol tug'ildiki, bu maqsadlar qayoqdan paydo bo'ladi? Javob: har qanday maqsad alohida bir shaxs, ijtimoiy guruh yoki millatning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligidan uning biologik ehtiyoji barobarida ijtimoiy ehtiyoji ham mavjud.

Biologik ehtiyojlar kishining biologik tabiatidan kelib chiqadi. Tirik mavjudot sifatida hayotni saqlab qolish uchun talab etiladigan zaruriy ehtiyoj biologik ehtiyoj deyiladi. Bularga yeb-ichish, nafas olish, xavf-xatardan saqlanish, nasl qoldirish kabilar kiradi.

Ijtimoiy ehtiyojga kishining ijtimoiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan fikr yuritish, fikr almashish, bilim olish, mehnat qilish, zavqlanish sevis va sevilish kabi ehtiyojlar kiradi.

Ehtiyojni qondirish ustida ma'lum vaqt fikr-mulohaza yuritilgandan keyin ehtiyoj yoki inkor qilinib bostiriladi, yoki unga yetishish maqsad qilib qo'yiladi.

Maqsad va uning ko'rsatkichlari aniq bo'lgandan keyin, unga yetishish usullari tizimi izlab topiladi va harakat boshlanadi. Shunda maqsad ko'rsatkichlari bilan harakat paytida o'z mavjudligini namoyon qiluvchi qonunlar yig'indisi ushbu faoliyatning metodologik asosini ya'ni amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar majmuini tashkil qiladi.

Kishi o'z faoliyatida eng umumiy tamoyillarga amal qilishi bilan birga muayyan bir sohaning umumiy maqsad va qonuniyatlariga tamoyil sifatida suyanadi.

Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soha oldiga qo'ygan maqsad ko'rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir.

Pedagogika sohasining umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, yani g'oyasidan kelib chiqib, ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak: aqlli, mustaqil fikr yurita oladigan; odobli, millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega; mehnatsevar, bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi; jismoniy, ruhiy, ijtimoiy sog'lom; milliy g'ururga ega-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy meroslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi; vatanparvar, vatan uchun xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muxofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi; baynalminal, o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi; insonparvar inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi; jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga yetkazuvchi.

Bu ijtimoiy sifatlarni jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyani birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyani ikkinchi qismini o'qituvchilarga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi.

Ularga: ta'lim-tarbiya jaryonida ta'lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish; har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda o'quvchining imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; bilim berishda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlilik va davomiylikni saqlash; o'quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borish; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Har bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir qatorda xususiy metodologiyasi ham mavjud. Bizning misolda, bu muayyan o'quv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni o'tishga kutilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan pedagogik texnologiyani besh tamoyillari hisoblanadi.

2. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi.

Texnologik sxema – texnologik jarayonni shartli ravishda tasvirlash, ularni alohida qismlarga ajratish va ular orasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni ko‘rsatish.

Texnologik xarita - qadamma-qadam, bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligi ko‘rinishida (ko‘pincha grafik shaklda) qo‘llaniladigan vositalarni ko‘rsatib jarayonni tasvirlash.

Texnologik nuanslar. Adabiyotlarda va maktablar ishlari amaliyotida pedagogik texnologiya termini pedagogik tizim tushunchasi sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Sistema tushunchasi texnologiya tushunchasidan ko‘ra kengroq bo‘lib, faoliyatning ob‘ekti va sub‘ektlarini ham o‘z ichiga oladi.

Texnologiya metodikasidan natijalarining mustahkamligi, qayta yangilanishi, ko‘plab “agarda” ikkilanishlarining yo‘qligi bilan farq qiladi (agarda iste‘dodli o‘quvchi bo‘lganida, agarda qobiliyatli bolalar, agarda ota-onalar...).

Texnologiyalar va metodikalarning aralashtirib yuborilishi ba‘zan metodika texnologiya tarkibiga kirishiga, ba‘zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar - o‘qitish metodikasi tarkibiga kirishiga olib keladi.

3. Pedagogik texnologiya tamoyillari.

1. Ilmiylik tamoyili.

Bu tamoyil har qanday o‘quv predmeti, o‘quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o‘quv dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o‘quv rejalari va o‘quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg‘ulot o‘tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o‘rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadilar.

2. Loyihalanish tamoyili

Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili - bu o‘quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini – o‘quv jarayoni grafigi; ishchi o‘quv reja; fanning ishchi o‘quv dasturi; fanning,

bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifalari; o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi.

3. Tizimlilik tamoyili

Pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o'quv jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati – talabalarni o'qitishga rag'batlantiradi.

4. Maqsad yo'naltirilganlik tamoyili.

O'quv jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun o'rnatiladigan maqsad, aniq va o'lchaniladigan bo'lishi shart. Bixeviorizm g'oyalari tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo'nalishning xususiyati – organizmni qo'zg'atishga bevosita bog'liqligini shakl shubhasiz tan olish va uni bu qo'zg'alishga undashdan ibortdir.

5. Faoliyat yondashuvi tamoyili

Ilmiy texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Balki ishlab chiqarish fanning jadal rivojlaniga sharoit yaratadi. Bu sharoitlarda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonning samaradorligi oshadi. O'quv reja, fanlar dasturi, mashg'ulotlar turi bo'yicha o'quv soatlari, mutaxassis faoliyatining batafsil tahlili asosida o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir - hozirgi paytda «yuz bor eshitishdan ko'ra, bir bor ko'rish afzaldir» degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi.

6. Boshqariluvchanlik tamoyili.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil o‘qitishning joriy natijalarini ko‘p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o‘tkazish imkoniyatini, - ko‘zda tutadi butun o‘qitish davrida o‘qitish jarayonini boshqarish asosan didaktik testlardan foydalanib amalga oshiriladi. Boshqarilish tamoyili, o‘qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

7. Qayta takrorlanish tamoyili

Qayta takrorlanish tamoyili, ma’lum fani bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritani, turli guruhlarda turdosh ta’lim muassasalarida boshqa sub’ektlar bilan ko‘p marotaba (takroriy) qo‘llash imkoniyatini anglatadi.

8. Samaradorlik tamoyili

Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko‘rsatadi. O‘quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirib erishiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Texnologik sxema nima?
2. Texnologik xarita nima?
3. Texnologik nyuanslar haqida ma’lumot?
4. Ilmiylik tamoyili haqida ma’lumot bering?
5. Loyihalanish tamoyilini ta’riflab bering?
6. Tizimlilik tamoyilini aytib bering?
7. Maqsad yo‘naltirilganlik tamoyilini yoritib bering?
8. Samaradorlik tamoyilini tushuntirib bering?

II BOB. TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK USULLAR

2.1. Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsion usullarni qo'llash va samaradorligini oshirish omili sifatida

Reja:

1. Innovatsiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash.
2. Pedagogik texnologiya va metod haqida qisqacha tushuncha.
3. Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etishning qisqacha mazmuni.

Ta'lim to'g'risidagi qonuni, "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish bilan ta'limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizasiya qilingan ta'lim standartlari to'liq bajarilishi ta'min etish davri boshlandi.

Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangitdan rekonstruksiya qilish, joriy ta'mirlash ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Maktablarni yangi jihoz, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, moderinizasiya qilingan, tajriba-sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta'minlash, kompyuterlashtirish davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdonlik, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovasiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy

natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'dni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q" asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif beradilar. "Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o'z xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Ta'lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib ya'ni, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo'yildi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun pedagogika sohasida kirib kelayotgan yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik innovasiyalar zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim (shuningdek o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi) mutaxassis kadrlar tayyorlashda bodajak o'qituvchilarning metodik mahoratiga, ularni o'qitishning yangi usullarini o'zlashtirishlariga yetarli e'tibor berilmayotganligi ta'lim sifati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

"Pedagogik texnologiya" atamasi o'qituvchilarimiz orasida ikki xil ma'noda qo'llanilmoqda:

1. Zamonaviy texnika, elektron hisoblash mashinasi, kompyuter, audial, vizual asboblarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llab samaradorlikni oshirish;

2. Ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash.

Ta'limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-

tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash.

Demoqchi bo'lgan fikrimiz shundan iboratki, o'qituvchi faoliyatining asosini dars tashkil etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini belgilash hamda maqsadga erishishning eng maqbul yodi va usuli metodni tanlash bilan belgilanadi.

“Metod” atamasi yunoncha – “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yod, haqiqatga intilish, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma'nosini anglatadi.

O'qituvchi metod tanlashda:

Birinchidan, o'qitish usuli, o'qish faoliyati usullari bilan chambarchas bog'diq bo'lishiga;

Ikkinchidan, maqsadlarga erishishda o'qituvchi o'quvchi hamkorligi o'z aksini topishi shart ekanligiga;

Uchinchidan o'quvchilarning yosh, individual psixologik xususiyatiga;

To'rtinchidan, mavzularning izchilligi va tizimlilikini hisobga olganlikka e'tibor beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o'z aksini topgan. Bular: “Aqliy Hujum”, “Yalpi fikriy Hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, “6x6x6”, “ Qora quti”, “Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim”, Klaster, Panaroma kabi metodlardir.

Ta'lim jarayoniga bu metodlarni qo'llash:

- o'quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o'zlashtirishga;
- vaqtning tejalishiga;
- har bir o'quvchining faollikka undalishiga;
- o'quvchining erkin fikrlash layoqatini shakllanishiga;
- o'quvchida o'zgalarning fikrini tinglay olish ko'mkmasining hosil bo'lishiga;
- o'quvchining o'z fikrini himoya qila olishiga;

- o'quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko'nikmasini shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'ekti va sub'ekti sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan'anaviy o'qitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni qrgatadi.
3. Ko'p tarmokli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli odadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarining diqqat e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bodadi.
13. Xotirani kchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va kqnikmalarini o'quvchiiga yetkazishdan iborat. qachonki o'quvchni tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchii malaka oshirish

uchun muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bodadi.

Ba'zi mamlakatlarning ta'lim sohasida to'plangan ilg'or tajribalari tahlilidan ayon boddiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviy-ahloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo'lgan muhit, unda qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning ahamiyati katta ekan. Zero, ushbu jamiyatda uning tafakkuri, ma'naviy-ahloqiy qiyofasini shakllantirishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjud. Rivojlanayotgan O'zbekiston jamiyatida ta'lim muassasalari, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim darslarining ham alohida o'ringa ega. Zero, muayyan kasb-hunar asoslaridan yosh avlodni xabardor etish ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish shaxsning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash uchungina emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ularda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;

- boshlang'ich ta'lim tabiat darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish;

- ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish;

- boshlang'ich ta'lim darslari pedagoglarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuv hissini tarbiyalash;

- boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish kpnikma va malakalarini hosil qilish;

- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish;

- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;

- boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini ta'minlash

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilari o'rtasida interfaol metodlar va ularning mohiyati xususidagi nazariy ma'lumotlarni targ'ib etish muvaffaqiyatini pedagogik jamoa, shuningdek, individual pedagog xodimlarda ularni o'rganishga nisbatan ehtiyoj, qiziqishning yuzaga kelishini belgilaydi. Yuzaga kelgan ehtiyoj hamda qiziqish ularni qondirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatni tashkil etishga nisbatan qaror toptiradi.

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishga quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi:

1. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.

2. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.

3. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub'ektiv yondashuvlarni inobatga olish.

4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.

5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.

6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.

7. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan hamkorlik va hokazolar.

Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1) Ob'ektiv omillar:

- Boshlang'ich ta'lim darslarida moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
- Ta'lim- tarbiya jarayonining zarur texnik hamda axborotli vositalar bilan ta'minlanganligi;
- Boshlang'ich ta'lim darslarida pedagogik monitoring (ma'lumotlar banki)ning tashkil etilganligi, uning maxsus adabiyotlar bilan boyitilganligi;

2) Sub'ektiv omillar:

- boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilarida PT mohiyatini o'rganishga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelganligi;
- Ularda o'z faoliyatlarida PT lardan foydalanishga nisbatan rag'batning qaror topganligi;
- kasb-hunar kolleji rahbariyati va jamoasining o'quv yurti faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish yo'lidagi birligi va yakdilligining shakllanganligi;
- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining PT mohiyatidan xabardorliklari;
- ularda o'z faoliyatlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarning tarkib topganligi;
- Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlarida PT ni qo'llay olish mahoratiga egaliklari;
- ularda ijodkorlik, izlanuvchanlik, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari orasida ko'tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;
- PT asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish va hokazolar.
- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi mahoratlari darajasi quyidagi ko'rsatgichlarga muvofiq belgilanadi:

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilari tomonidan yangi pedagogik texnologiya nazariyasi, uning mohiyati, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini oldindan tashhishlash, ular tomonidan tashkil etilayotgan o'quv faoliyati mazmunini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, pedagogik faoliyat samaradorligini aniqlash borasidagi nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi;

- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarida boshlang'ich ta'lim o'quvchilari bilan muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshuv, pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga muvofiq xatti- harakatni tashkil etish malakalari shakllanganligi;

- Pedagogik faoliyat mazmuni, kodami, sur'ati hamda samaradorligining yuqori darajasi.

Tadqiqot muammosini nazariy-amaliy asoslarini o'rganish natijasida shu holat aniqlandiki, pedagogik texnologiyalar mohiyatini boshlang'ich ta'lim darslari pedagoglari o'rtasida targ'db qilish jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan tabiiy fanlar o'qituvchilari mazkur pedagogik texnologiyalarning nazariy-amaliy asoslarini tez va puxta o'zlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Buning boisi, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan metodlarning statistik xususiyatga egaligidadir. Tabiiy fanlar o'qituvchilarining texnik va axborot vositalari bilan ishlay olish tajribasi va mutaxassislik ma'lumotlariga ega ekanliklari ularni interfaol metodlar borasidagi bilimlardan xabardor etish jarayonida ma'lum qulayliklarni yaratdi. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish jarayonidagi imkoniyatlar va tajribalarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan, o'quv fanlari bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarning loyihasini ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining faoliyatlarini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda darslarining samaradorligini aniqlashga

imkon beruvchi dasturlarni tuzishda tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'rni beqiyosdir.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Pedagogik texnologiya" atamasini izohlab bering?
2. "Metod" atamasini izohlab bering?
3. "Interfaol metod" atamasini tushuntirib bering?
4. Ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni qo'llash qanday foyda beradi?
5. Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima?
6. Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdning qanday afzalliklari mavjud?

2.2. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'ziga xosligi va qo'llanilishi

Reja:

1. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati.
2. "Fikriy xujum", "Videotopishmoq", "Raqamli joylashuv", "Sirli rasm" metodlari va ularning mazmuni

Tayanch tushunchalar: ta'lim jarayoni, interaktiv, pedagogic texnologiya, fikriy xujum, raqamli joylashuv.

Ko'pgina asosiy uslubiy innovatsiyalar bugun o'qitishning interaktiv usullarini qo'llash bilan bog'likdir. Tushunchaning o'zini aniqlab olishni istardi. „Interaktiv“ so‘zi bizga ingliz tilidagi „interakt“ so‘zidan kirib kelga. „Inter“ – bu „o‘zaro“, „akt“ – harakat qilish. Interaktiv o‘zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, kompyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (mulokat) rejimida bulishni bildiradi. Demak interaktiv o‘qitish-bu hammadan avval dialogli o‘qitishdir, uni borishida pedagog va o‘quvchining, o‘quvchi va kompyuterning o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

„interaktiv“ning asosiy ta'riflari nimadan iborat? Tan olish kerakki, interaktiv o‘qitish- bu idrok etish faoliyatini tashkil qilishning maxsus shaklidir. U butunlay aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarni nazarda tutadi. Bunday maqsadlarning biri o‘qitishning shunday kulay sharoitlarini yaratishni, ularda o‘quvchi o‘zining

fuvoffakiyatligi, o'zini akli mustakilligini xis qiladi, intraktiv o'qitishning moyiyati shundan iboratki, unda o'quv jarayoni shunday tashkil qilinadiki, amalga barcha o'quvchilar idrok etish jarayoniga jalb qilinadilar, ular tushunish va bilganlariva uylaganlari bo'yicha refleks xosil qilish imkoniyatlariga egalar. O'quv materialini idrok etish, o'zlashtirish jarayonidagi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shuni bildiradiki, ularda har biri o'z aloxida shaxsiy ulushini kiritadi, bilimlar, goyalar, faoliyat usullarini almashtirish ketadi.

O'qitishning interaktiv usullari o'quvchilarning goyatda katta ta'lim saloxiyatini faollashtirish va foydalanishga, o'quv jarayoniga ijodiylik elementlarini kiritish va ijodiy faoliyat yurituvchi tizmlarga xos bo'lgan inergiya xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talablardan biri ortikcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, kiska vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vakt orasida muayyan nazariy bilimlarni taxsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'i nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishni;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishni;
- tahsil oluvchilar tomonidan o'kuv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- tahsil oluvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni;

- tahsil oluvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishni;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi xamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmokda.

Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin bahs-munozara sharoitini tugdirishdan iboratdir. Bu metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi:

1. Chaqirik bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, mavzuining mazmun-mohiyatiga kirib borish, uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.
2. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.
3. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni kisha jummalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh topshirik bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshirikni boshqalarga ma'lum qiladi.

Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlash bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab io'lga ko'yilishi mumkin. Tahsil oluvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash uchun quyidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Guruxlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.

3. Har bir guruxdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga erishish kerak.

4. Guruh doira shaklida o'tirishi lozim.

5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, goyalariga e'tibor beriladi.

Bulardan tashqari guruxlarga anik yo'l-yo'riq ko'rsatish, topshirikdarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, kuchli guruhlarni rag'batlantirib borish, ishning natijasini baholash kabilarga ham axamiyat berish muhim xisoblanadi. Dars jarayonida guruh a'zolarini almashtirib borish ham mumkin.

Quyida ta'lim jarayonida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

«Fikfiy xujum» («Mozgovaya ataka») metodi

Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashgulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish xamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang- barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni xal etish jarayonining dastlabki boskichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

«Fikriy xujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashgulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqdash, har qanday luqma va hazilmutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad tahsil oluvchilarning mashgulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik maqorati va tafakkur ko'laminynng kengligiga bog'lik bo'ladi.

«Fikrlarning shiddatli xujumi» metodi

So'z yuritilayotgan metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan xamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodining mohiyati quyidagichadir:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan xar bir tahsil oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- tahsil oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi goyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashgulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashgulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

- 1- bosqich - ruhiy jihatdan bir biriga yaqin bo'lgan tahsil oluvchilarni o'zida birlashtirgan hamda son jihatidan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish;
- 2- bosqich-guruhlar hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash;
- 3- bosqich - guruhlar tomonidan muayyan goyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi);
- 4- bosqich-topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish;
- 5- bosqich - topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni, ularning to'g'riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash;
- 6- bosqich - dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- tahsil oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- vaqtni iqtisod qilish;
- har bir tahsil oluvchini faollikka undash;

- ularda erkin fikrlash layokatini shakllantirish.

«Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi

Tahsil oluvchilar bilan ommaviy va gurux shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg'ulotlar so'ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod kuyidagi xarakatlarni tashkil etish asosida ko'llaniladi:

- o'qituvchi tomonidan sinfda tahsil oluvchilarining soniga ko'ra har bir tahsil oluvchi uchun qizil va yashil rangli kartochkalar xamda mavzuga oid savolnoma tayyorlanadi;
 - savolnomadan «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish mumkin bo'lgan savollarning o'rin olishiga axamiyat qaratiladi;
- xar bir tahsil oluvchiga qizil va yashil kartochkalar tarkatiladi;
- tahsil oluvchilarga qizil rangli kartochkalarining «tasdiq», yashil rangli kartochkalarining «inkor» ma'nosini anglatishi uqtirib o'tiladi;
- tahsil oluvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga «tasdiq» yoki «inkor» ma'nolarini anglatuvchi kartochkalarni ko'rsatish asosida javob kaytaradilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VIII sinfida «Iqtisodiy bilim asoslari» fani bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodini ko'llashda tahsil oluvchilarga kuyidagi savollarni berish mumkin:

Inson ehtiyojlarini qondirish uchun unga turli xil ne'matlar (resurslar) zarur bo'ladimi?

Havo, suv, quyosh nuri va issiqligi, shuningdek, foydali qazilmalarni inson kuchi bilan xosil qilish mumkinmi?

Mahsulotlar faqatgina moddiy ne'matlardangina iboratmi?

Xizmat ko'rsatishning muayyan ko'rinishi maqsulot bo'la oladimi?

Moddiy ne'mat yaratmaydigan, biroq natijasi insonlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat xizmatlar deb ataladimi?

Mahsulot ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslar (xomashyo, insonning yasismoniy va aqliy kuchi, turli mexanizm, mashina va asbobuskunalar, ishlab chiqarish korxonalarini)ning bo‘lishi shartmi?

Iqtisodiy resurslar miqdorining «cheklangan deb hisoblanishi» to‘g‘rimi?

Jamiyatda iqtisodiy cheklanganlik muammosi mavjudmi?

Iqtisodiy cheklanganlik muammosining iqtisodiyotning asosiy (bosh, yetakchi) muammosi deb hisoblanishi to‘g‘rimi?

«Videotopishmoq» metodi

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televizor, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Uqituvchilar oldida ta‘lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tahsil oluvchilar e‘tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- tahsil oluvchilar har bir lavhada kanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga kayd etadilar;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob kaytaradilar.

“Videotopishmoq” metodi

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televizor, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Uqituvchilar oldida ta‘lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tahsil oluvchilar e‘tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy

yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- tahsil oluvchilar har bir lavhada kanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga kayd etadilar;

- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob kaytaradilar.

- «Zakovatli zukko» metodi

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda tahsil oluvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layokatlariga egaliklari muxim ahamiyatga ega. «Zakovatli zukko» metodi tahsil oluvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan tahsil oluvchilar uchun kulay imkoniyatni yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tahsil oluvchilarning tafakkur tezligi aniklanadi.

Ballarning belgilanishi tahsil oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida anik tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Metod taxsil oluvchilar bilan yakka tartibda, guruxli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

“Raqamli joylashuv” metodi. Buning uchun raqamli kataklarga yozilgan so'zlardan mazmunli gap tuzishlari kerak so'ng so'zlarga so'roq berib, ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlashlari zarur. Topshiriqni yakka tartibda yoki kichik guruhda ishlash mumkin.

1 oshxonasida; 2 maktab; 3 qo'li; 4 ishlaydigan; 5 oshpazlarimiz; 6 shirin; 7 uchun 8 bizlar; 9 mazali; 10 doim; 11 tayyorlaydilar; 12 ovqat;

Namuna: Maktab oshxonasida ishlaydigan qo'li shirin oshpazlarimiz bizlar uchun doim mazali ovqat tayyorlaydilar.

“Sirli rasm” metodi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini o‘stirish maqsadida o‘tkaziladi. Bu o‘yinda rasmlar har xil shaklda qirqib olinadi va konvertga solinadi. Rasm shakllariga mavzuga oid savollar yoziladi. O‘quvchilar shakllardagi savollarga to‘g‘ri javob berib, doskaga ilingan rasmni qismlarini to‘ldiradilar. Qaysi o‘quvchi (guruh)ning rasm qismlari birinchi to‘ldirilsa, yani savollarga to‘g‘ri javob berilsa, g‘olib sifatida rag‘batlantiriladi.

Masalan quyidagi mavzuga oid savollarni ham bersa b‘oladi.

Mavzuga oid savollar:

1. Gap qanday bo‘laklardan tuziladi?
2. Gapda qaysi bo‘laklar bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi?
3. Gapning qaysi bo‘laklari uyushib kelishi mumkin?
4. Uyushiq bo‘laklarning qanday ahamiyati bor?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Interfaol atamasining ma‘nosi nima?
2. Metod so‘zining ma‘nosini ayting?
3. “Fikriy xujum” metodini ta‘riflab bering?
4. “Videotopishmoq” metodini ta‘riflab bering?
5. “Raqamli joylashuv” metodini ta‘riflab bering?
6. “Sirli rasm” metodining mazmunini aytib bering?

2.3. Muammoli ta‘lim – rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasi.

Reja:

1. Muammoli ta‘lim va uning o‘ziga xosliklari.
2. Muammoli ta‘limning mohiyati va vazifalari.
3. Muammoli ta‘limni qo‘llash texnologiyasi.
4. Muammoli ta‘limni tashkil etish shart-sharoitlari.

Tayanch tushunchalar: muammo, muammoli vaziyat, muammoli ta‘lim.

An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli ta'lim va uning o'ziga xosliklari.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi (3.3-rasm), o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi

Muammoli ta'limning mohiyati va vazifalari.

Muammoli ta'lim-o'quvchilar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar kuchi orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan holda tashkil etish usulidir.

Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning bahslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi. Bu ta'limning tadqiqotchilik turidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.


Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muamoli o'qitishning o'ziga xos jihatlari majudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas quyidagicha izohlaydi.

B.Aysmontas bo'yicha muammoli ta'limning yutuq va kamchiliklari:

Yutuqlari	Kamchiliklari
<p>1. Bilimlarni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta'lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi .</p> <p>2. Talabani shaxsiy motivatsiya-lari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantiradi .</p> <p>3. Talabalarning fikrlash qobiliya-tini rivojlantiradi</p> <p>4. Talabalarning dialektik tafak-kurining shakllanishi va rivoj-lanishiga yordam beradi, ular tomo-nidan o'rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi.</p>	<p>1. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanishda boshqa ta'lim tiplariga qaraganda kam darajada qo'llaniladi.</p> <p>2. Boshqa ta'lim turlariga qaraganda bir xil hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun ko'p vaqt talab etiladi.</p>

Muammo o'qitishning mohiyati shundaki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.



O'quv muammosining asosiy belgilari.

Shaxs izlanishli bilish faoliyati bosqichlari.

2. Muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi.

Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

Muammoli ta'limning birinchi darajasi – o'qituvchi tomonidan muammo yaratiladi va o'qituvchi tomonidan yechimlar ishlab chiqiladi, talabalar bu holda muammoli ta'lim jarayonida faoliyat yuritishga o'rganadilar.

Muammoli ta'limning ikkinchi darajasida – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

Muammoli ta'limning uchinchi darajasida – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta'limning to'rtinchi darajasida - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda talabalar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Muammoli vaziyatlar mazmuniga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

1. Maqsad noma'lum – uni aniqlash kerak.
2. Faoliyat ob'ekti noma'lum – uni aniqlash kerak.
3. Faoliyat usuli noma'lum – uni aniqlash kerak.
4. Faoliyatni bajarish shartlari noma'lum – uni aniqlash kerak.

O'quv jarayonida o'qituvchi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun ularni tashkil etish texnologiyasi bilan tanish bo'lishi kerak. Albatta bu vazifa

mavzuning xarakteridan kelib chiqqan holda bajariladi. Muammoli vaziyatlarni quyidagi turlari bor:

1. Kutilmagan favqulodda – hayratlanarli vaziyat.
2. Nizo vaziyati.
3. Faraz qilish vaziyati.
4. Inkori qilish vaziyati.
5. Nomuttanosiblik vaziyati. (amaliy va nazariy bilimlarning bir-biriga tugri kelmasligi, yoki eski bilimlarning yangi bilimlarga to‘g‘ri kelmasligi.
6. Tanlash vaziyati.
7. Izlanuvchi va tadqiqot ishlari o‘tkazish ham muammoli vaziyatlaridan bo‘lib hisoblanadi.

Quyida ushbu muammoli vaziyatlardan birini kengroq yoritib o‘tamiz: **Nomuttanosiblik vaziyati.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal bo‘lishi kerak, O‘zbekistonda esa davlat bosh islohotchi va boshqaruvchi. Mana shu nomuttanosiblikni taxlil qiling?

3. Muammoli ta’limni qo‘llash mahorati

Muammoli ta’lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o‘ta muhim. Fikrlash refleksi, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O‘zlashtirilgan bilimlarni puxta bo‘lishiga yordam beradi. Talabalarni faollashtiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Ammo bu ta’limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari ham yo‘q deb bo‘lmaydi. Muammoli ta’limni tashkil etish va o‘tkazish bir muncha ko‘proq vaqt talab etadi. Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan holda tashkil etib bo‘lmaydi. Talabalar soni chegaralanadi. O‘qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba’zi passiv talabalar chetda qolib ketadi.

O‘z- o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

Muammoli ta’limni rivojlanish tarixiga izox.

Muammoli ta’limning qanday darajalarini bilasiz?

Qanday muammoli vaziyatlarni bilasiz?

Muammoli ta'limni tashkil etishda kanday omillarni xisobga olish kerak?

Muammoli vaziyatlarga iqtisodiy mavzulardan misollar keltiring.

Muammoli ta'lim texnologiyasining yutuq va kamchiliklarini ko'rsating.

Muammoli ta'lim talabalarda kanday kunikma va malakalarni rivojlantiradi?

Oliy ta'lim tizimida muammoli ta'limning ahamiyatiga izox bering.

Muammoli ta'limni tashkil etish shart-sharoitlari.

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- talabaning fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;
- nostanart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar tarixi orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning an'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog'liq bo'ladi:

- muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida talaba uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;
- muammo yechimida o'quvchilar ijodiy ishtirokining ham jamoaviy ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud:

o'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi yechadi, o'quvchilar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «O'simliklar hayoti haqida» mavzusidagi ma'ruzaning boshida «Nega ildiz va tana qarama-qarshi tomonlarga o'sadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo ma'ruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday yetib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi.

Qisman izlanish faoliyati tajribalar laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar talabalarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u o'quvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish) ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.


Mustaqil tadqiqot faoliyatida talabalar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini

(ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim-qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa shubhasiz muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi ya'ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi ifodalanishi mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi



Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat

muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

3. Evristik o'qitish metodi

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish;	o'quv muammolari mohiyatini anglab olish; tadqiqot muammosini o'qituvchi va
o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish;	o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faollik ko'rsatish;
o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	ularni yechish usullarini topish; tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o'zlashtirish

Evristik metodi o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

xorijiy ta'limda tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati

Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYUTOR - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER (advisor)-fransuzcha "avisen""o'ylamoq") tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR - (ingliz tilida .facilitator, latinchafacilis–engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR -Qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish

faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Muammoli ta'limni rivojlanish tarixiga izox.
2. Muammoli ta'limning qanday darajalarini bilasiz?
3. Qanday muammoli vaziyatlarni bilasiz?
4. Muammoli ta'limni tashkil etishda kanday omillarni xisobga olish kerak?
5. Muammoli vaziyatlarga iqtisodiy mavzulardan misollar keltiring.
6. Muammoli ta'lim texnologiyasining yutuq va kamchiliklarini ko'rsating.
7. Muammoli ta'lim talabalarda kanday kunikma va malakalarni rivojlantiradi?
8. Oliy ta'lim tizimida muammoli ta'limning ahamiyatiga izox bering?
9. "Tyutor" tushunchasini ta'riflab bering?

III Bob. BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QUV FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASH TA’LIM SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA

3.1. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv faoliyatini integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida.

Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv faoliyatini integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida.
2. Integratsiyalashgan dars turlari.
3. Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish.
4. Boshlang‘ich sinfda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish

Tayanch tushunchalar: integratsiya, integratsiyalash, integratsiyalash ta’lim, integratsiyalashgan dars.

1. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv faoliyatini integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta’limning hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi ahamiyatli g‘oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta’limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Integratsiya-ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Professor R.A.Mavlonova shunday yozadi: “Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligini

ko'rib chiqaylik. «Integratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan¹.

Biz integratsiyaning mohiyatini aniqlash jarayonida uning filosofik, pedagogik — psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir —biri bilan uzviy bog'diq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlarini(aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, xuquqiy, jismoniy tarbiya)ni kamrab oladi va ularning o'zaro bog'dikligini ta'minlaydi.

Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat konunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida xar tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini xis qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bodadi.

Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.

Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini todiq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir kodsatib:

- ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur

¹ Mavlonova R., Rahmakulova N. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash. Toshkent 2011y.

fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati: "inson va tabiat", "inson va jamiyat", "inson va inson", "inson va texnika", "tabiat-inson-texnika-atrof-muhit" muammosi tobora markaziy o'rin egallamoqda.

Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bodmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzluksiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur.

Tabiiy fanlar ta'limi mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmogd lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon bodadi. Ularning tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi.

Aynan uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarning yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rnini samarali tarzda belgilab berish mumkin. Pirovard natijada, bu barcha maktab o'quv fanlaridagi maxsus bilimlar bilan umumiy-madaniy bilimlar o'rtasidagi o'zaro nisbatning uzviylik asosida o'zgarishiga (keyingilarining foydasiga) olib keladi.

Shu tariqa, uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bodadi.

Tadqiqotlarimiz tabiatshunoslik ob'ektlarini "tabiat - fan - texnika - jamiyat - inson" uzviylik tizimida o'rganish tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning yagona metodologik asosi bo'lib hisoblanishini ko'rsatib berdi.

Yangi didaktik tizimni ishlab chiqishda dunyoni yaxlit idrok etish, tizimli tafakkur va “tabiat – inson” tizimini aksiologik jihatdan baholash dastlabki ko‘zda tutilgan maqsad bo‘lib hisoblanadi. Bunday yondashuvda o‘qitishdagi ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi.

Ilmiylik mezonlarida zamonaviy ilmiy uslubda fikrlashning bilimlar oldidagi shubhasiz ustunligi hisobga olinadi.

Tabiiy fanlar mazmunini insonparvarlashtirish konsepsiyasi asosida integrativ yondashuvni amalga oshirish borasidagi tajribamiz natijalari 3-4-sinflar uchun “Tabiatshunoslik” kursi dasturining ishlanmasida nisbatan aniq taqdim etilgan.

“Tabiatshunoslik” kursi konsepsiyasini ishlab chiqishda biz zamonaviy, rivojlanayotgan jamiyatga o‘tish davrida o‘quvchilar dunyoqarashining real dunyodagi ob‘ektiv munosabatlarni uzviylik asosida integratsiyalashgan tarzda aks ettiruvchi “inson – tabiat” tizimidagi o‘zaro aloqadorlik to‘g‘risidagi bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerakligini hisobga oldik. Bunday yondashuv o‘quvchilarning zamonaviy jamiyatning ma’naviy timsollari ekologiyaning qat’iy talabiga teran bog‘liq ekanini tushunishlariga olib keladi (tabiatdan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishgina insoniyatning omon qolishini ta’minlab va uning kelgusi rivojlanish yodini belgilab bera oladi xolos).

Bunda quyidagilar yetakchi g‘oyalar hisoblanadi:

1. Tabiatning birligi, yaxlitligi va tizimli tarzda tashkil topganligi g‘oyasi.
2. Jonli mavjudotlar, jumladan inson tabiatni maxsuli.
3. Tabiat va insonning o‘zaro uzviy bog‘liqligi g‘oyasi.
4. Insonning koinotdagi burchi va tabiatdan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishni anglash orqaligina “tabiat–inson” tizimini uyg‘unlashtirish mumkinligi g‘oyasi.

Kursning vazifalari:

- o‘quvchilarda dunyoning hozirgi tabiiy-ilmiy manzarasi kontekstida tizimli tafakkur ibtidosini rivojlantirish;

- o'quvchilarda tabiat ob'ektlari va hodisalari, unda kechadigan jarayonlar qonuniyatlari, tabiat birligi ta'limoti tizimidagi tabiat qonunlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish;

- tabiatshunoslikda bilishning o'ziga xos metodi sifatida o'quvchilarning fenologik kuzatish qobiliyatini, tarkib toptirish; laboratoriya ishlarini bajarishda eksperimental ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; kichik tadqiqot ishlarini o'tkazish.

- o'quvchilarda ekologik ta'lim-tarbiya asosi hamda zamonamizning global muammolari mohiyatini anglashning muhim bo'g'ini sifatidagi "tabiat-texnika-inson" munosabatlari tizimida aniq yo'nalish beruvchi qat'iy ishonch tizimini hosil qilish;

- o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashi hamda muammolarni to'g'ri payqay olish, xulosa chiqarish va ularni hal etish yo'lini topish layoqatini rivojlantirish; abstrakt tafakkur va bilimlarni umumlashtirish (tahlil, sintezlash, qiyoslash, analogiyasini topish, sabab-oqibatiga ko'ra aloqalarini belgilash) malakalarini rivojlantirish;

- o'quvchilarda tabiatni estetik idrok etishni rivojlantirish - ularni ma'naviy rivojlantirish vositasi va dunyoni anglash usullaridan biri sifatida;

- o'quvchilarda ekologik tafakkur va tabiatga qadriyatli munosabatda bo'lishning asosi sifatida insonparvar, ma'naviy timsollarni shakllantirish.

Ko'p yillik tajriba va mavjud tadqiqotlar taxliliga suyangan holda shuni qayd qilish mumkinki, tabiatshunoslikka oid asosiy bilimlarni 3-4 sinfdan boshlash yaxshi natija beradi.

"Tabiatshunoslik" integrativ kursi o'quvchilarda dunyoning hozirgi tabiiy-ilmiy ko'rinishiga muvofiq keluvchi fikrlash uslubi (tizimli tafakkur)ni shakllantirishga yo'naltirilgan, bu hozirgi dunyoning insonparvar yo'l bilan hal etilishini kutayotgan dolzarb muammolarini anglab yetishga imkon yaratadi. Kurs tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u bilimlarni yagona metodologik negizda integratsiyalashni:

tabiatshunoslik ob'ektlarini "tabiat-fan-texnika-jamiyat-inson" tizimida o'rganish lozimligini asoslab beradi.

2.Integratsiyalashgan dars turlari.

Boshdan integratsiyalangan kurs-bu sinfdan tashqari o`qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- a) kitob o`qish asbobi sifatida o`qish darslarida olgan o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish;
- b) matn ustida ishlash;
- v) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Matematika ham integratsiyalangan kurs-arifmetik materialni o`zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari va shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o`rgatishga tayyorgarlik. Boshdan integratsiyalangan kurs tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o`qish-rus tili, o`qish-tabiatshunoslik, o`qish-tasviriy san'at, o`qish-musiqqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik- mehnat ta'limi, matematika - mehnat ta'limi, matematika - jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o`qituvchi (ta'lim berish) va O`quvchi (ta'lim olish)xarakatlarining mos kelishini ko`zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o`qituvchi va O`quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1.Maqsadli bosqichda o`qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O`quvchilar o`qituvchi boshchiligida predmetlararo bog`liqliklarni tushunib etishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o`z e'tibor fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o`zlashtirishga emas balki, ko`chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarining rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2.Isbotlash bosqichida o`qituvchi O`quvchilarni dunyoqarashini o`stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag`barlantiradi. O`quvchilar o`z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo`naltiradilar.

3.Faoliyatning mazmun bosqichida o`qituvchi yangi O`quv materialini kiritadi, shu bilan birga integrastion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O`quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o`zlashtiradilar.

4.Vositalar tanlash bosqichida o`qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko`rgazmali vositalarni-darsliklar, tablistalar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O`quvchilar ko`chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integrastioi masalalarni xal qilishda ko`rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5.Keyingi bosqich - natija. O`qituvchi ta`lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integrastiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo`llaydi. O`quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirish ularni amalga qo`llaydi.

6.Nazorat qilish bosqichida o`qituvchi bir- biri bilan bog`langan predmetlarga O`quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o`zlashtirish sifatida baholaydi. O`quvchilar o`z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo`yicha o`z-o`zini ham, ularni birlashtirish ko`nikmalarini nazorat qiladilar.

Tekshiruvlar ko`rsatishicha integral yondoshuvchi amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

- 1.Evristik suhbatlar;
- 2.Umumiy suhbatlar;
- 3.Ekskursiyalar;
- 4.Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o`stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
- 5.Ta`limning ko`rgazmali, metodlari;

6. Mustaqil ishlar;

7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;

8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);

9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish;

10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);

11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, echish va boshqalar.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etmaydigan, uni to'ldiradigan integrastiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Ta'limni integrastiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq «Integrastiya» tushunchasi 2 ta ma'noga ega:

- a) O'quvchida atrofdagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integrastiya ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).
- b) Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integrastiya - ta'lim vositasi)

Integrastiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

Integrastiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim.

U ta'lim oluvchining bilimni oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integrastiya ta'limining klassik O'quv predmentlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni

integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib «ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

3.Integratsiyalshgan darslarni rejalashtirish.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika **o'quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi**, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar.

Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni

shakllantirishdan iborat. Shu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda **integratsiya** – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. **O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati** turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz. O'quv fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz. **Biz o'quv fanlarini integratsiyalash natijasi** fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan sub'ektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, — degan kontseptual g'oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o’n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O’quv jarayonida o’qituvchi bir yoki bir necha mashg’ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o’zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’ektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo’ladi. Ya’ni, **bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak.** Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o’tish bilan bog’liq bo’lib, u fanlararo aloqalarni o’rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o’tilish holati sub’ektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi: talaba aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o’tkazilgandagi tavsifining o’zgarishi; ilmiy bilimlar mohiyat jihatidan o’zaro bog’liqligini o’quv vazifalariga aylantirish; talaba ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo’nalganligining tarkib topishini ta’minlovchi fanlararo bilim va ko’nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I.Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya ob’ektlariga tatbiq etilib, politexnik ko’rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa ob’ektlarga o’tkazilganida o’zga yo’nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, fizikani o’qitish metodikasiga o’tkazilgan fizikaga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo’lajak fizika o’qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi. Fan yo’nalishlariga oid bilimlar bo’lajak muhandisning maxsus fanlarni o’rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o’zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta’lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo’lajak

muhandis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Umumta'lim, umumtexnik hamda maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan, zero, u o'zida tabiatiga ko'ra yagona bo'lgan atrof-olam to'g'risidagi bilimlarni ifoda etadi.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartiblilik, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir:

3.Boshlang'ich sinfda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish

Fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Masalan, biz bu jarayonni 1-4 sinflarning o'quv rejasi orqali tahlil qilamiz.

Filologiya sohasi 2 ga bo'linadi:

1. O'zbek tili
2. Ona tili va o'qish

Bu ikki fan orasidagi integratsiya jarayoni shundan iboratki, ikkala fanning maqsadi o'quvchilarda yozma va og'zaki nutq malakalariga ega bo'lishga qaratilgan.

Keyingi misolni inson va jamiyat sohasida ko'rib chiqsak bo'ladi Inson va jamiyat sohasi beshga bo'linadi:

1. Odobnoma;
2. Musiqqa madaniyati;
3. Tasviriy san'at;
4. Mehnat;
5. Jismoniy tarbiya.

Bu fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir.

Nutq o'stirish -harflarii to'g'ri talaffuz etish va yozish, so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon obrazli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur

bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalari olingan parchalarni o'qib tushuna olish kabi talablarni o'z ichiga oladi. Deyarli har bir darsniig maqsadi nutq o'stirishga qaratilgandir. Asosan ona tili va o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar nutq o'stirish bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lsalar, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida uni mustahkamlab, to'ldirib boradilar. Masalan: 4-sinf ona tili darsligini olaylik. Unda nutq o'stirishga oid mashqlar berilgan. 22-mashqni ko'rib chiqsak. Bunda so'zlarni o'qing, talaffuzga e'tibor bering va so'zlarni ko'chirib yozilishini bilib oling degan shart berilgan. **Bayroq, a'lochi, qal'a, e'lon, rasm, qat'iy, o'ladi, Ma'mura, ko'z, vatan, olho'ri, a'zo, sariq, jahon, san'at, nordon, arqon, poda, qit'a, beda.** O'qish darsida esa nutq o'stirish jarayonini hikoyalar, ertaklar, she'rlar, matnlar orqali ko'rishimiz mumkin.

4-sinf matematika darsligini ko'rib chiqsak, bunda matematik terminlar orqali, o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni yuz beradi.

«Ikki xonali va uch xonali songa ko'paytirish» mavzusidagi 930-mashqda 36 ni 47 ga qanday ko'paytirilganini tushuntirish berilgan. Tushuntirish: 36 ni 47 ga ko'paytirish kerak. Ko'paytiramiz. 36 ni 7 ga birinchi to'liqsiz ko'paytma 252 ni hosil qilamiz. Ko'paytiramiz: 36 ni 40 ga, ikkinchi to'liqsiz ko'paytma 1440 ni hosil qilamiz. To'liqsiz ko'paytmalarni qo'shsak, ko'paytma 1692 hosil bo'ladi.

Tabiatshunoslik darsida ya'ni-fanida 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O'zbekistonning geografik o'rni, o'rmonlari, hayvonot olami, er osti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

Jonajon o'lkamiz O'zbekiston.

O'zbekiston 447,1 ming kvadrat km er maydonini egallaydi. U g'arbdan sharqqa tomon 1400 kmga, shimoldan janubga tomon 925 kmga cho'zilgan.

O‘zbekistonning eng yaqin qo‘shnilari janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi sharqda Tojikiston, shimoli sharqda Qirg‘iziston. Bu respublikalarning tabiati, er yuzasining shakli, ob-havo sharoiti, o‘simliklari va hayvonlari jihatidan bir-biriga o‘xshash. O‘zbekistonning shimolida juda katta er maydonini egallaydigan Qozog‘iston joylashgan. Bu respublikalar Markaziy Osiyo degan umumiy nom bilan atalib kelmoqda. O‘zbekiston janubdan Afg‘oniston bilan chegaradosh. Chegaralar kartada shartli belgilar bilan ifodalanadi. . Shu kabi **odobnoma** darsida ham bir qancha odob-axloqqa oid matnlar, she’rlar, hikoyalar, hikmatli so‘zlar berilgan bo‘lib, ularni ham o‘quvchi o‘qish, gapirish jarayonida nutq o‘stiradi va ularning barchasi integratsiyadir. 4-sinf “Umr o‘tib borar misoli”ertak.

Umr o‘tib borar misoli ertak,
Ertaning ketidan kelib qolar shom,
Faqat g‘aflat ichra yotmagin yurak,
Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom,
Payt kelar, va’daning qimmatini qolmas,
Muhlat bermas u dam to‘lgan paymona.

O‘tgan bir oningni qaytara olmas,

Na ko‘z yosh, na afsus va na bahona. . . **Abdulla Oripov**

Ahloqiy tarbiya - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum hatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Ahloq-odob tarbiyasi milliy -ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi.

Ahloqiy tarbiyaning vazifasidan biri - ongli intizom bo‘lishidir. Abdulla Avloniy «Intizom deb qiladurg‘on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar er yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar» deb ta’kidlaydi, Demak, asosan, odobnoma darslarida ahloqiy tarbiya berib, bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilinsa, boshqa fanlarda uni mustahkamlab to‘ldirib boriladi.

Masalan, 3-sinfning **odobnoma** darsida 4-darsning mavzusi «Qarilik donolik» (1 soatlik) berilgan.

Bu darsda o'qituvchi «Qobusnoma» kitobini ko'rsatib, undan qariyalar haqida, «Qarilik va yigitlik sifati zikrida» bobi o'shib beriladi va muhokama etiladi. Xalq maqollaridan misollar keltirib, ahloqiy tarbiya beriladi. **O'qish** darsligining deyarli ko'p mavzulari ahloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 - sinfning o'qish darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom-salamatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb so'rasalar, etti holatda deb javob bergin. Avvalo yoru do'stlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni ko'rganda salom berishing lozim.

Ikkinchi jamoat joylariga borganingda solam berishing kerak. Uchinchi biror xonadonga borsang u erga salom berib kirgin. To'rtinchi bir erda jam bo'lib o'tirgan kishilar davrisiga kirsang salomlashgin. Kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni hayrlashish salomi deyiladi.

Oltinchi maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber.

Yettinchi o'z xonadoningga salom berishni kanda qilma. **Ona tili** darsligida ham ko'p mashqlar ahloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4-sinf ona tili darsligini olsak «Olmosh so'z turkumidir» mavzusida 269-mashqda: Olmoshlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. O'qituvchi bu she'rni o'qib berar ekan ahloqiy tomonlarini ochib berishi kerak.

Ahloqiy tarbiya **tabiatshunoslik** darsida ham olib boriladi. 4-sinf darsligida «Tog' o'rmonlari va o'tloqlari» mavzusida: Tog'larda dam olish vaqtida va turistik poxodlarda tabiatni juda avaylab, ehtiyot qilish zarur, daraxtlarga zarar etkazish, shox-novdalarni sindirish, gullarni yulib dastalash, qushlar bilan hayvonlarni bezovta qilish mutlaqo yaramaydi. Bularni diqqat bilan kuzatib borish, foto suratini olish lozim. Ana shunda shu tog'larda dam olganigiz to'g'risida uzoq yillarga xotira qoldirish imkoniga ega bo'lasiz.

O‘rmonda gulhan yoqish mumkin emas. Chunki, gulhanlardan ko‘pincha o‘rmonga yong‘in chiqib, odam uchun qimmatli bo‘lgan o‘simliklarga emas, balki hayvonlar ham nobud bo‘ladi, degan satrlar berilgan.

Mehnat darsida ham bolalarga ovqatlanish odobi, mehmon kutish odobi, kiyinish odobi, dasturxon tuzatish odobi kabi ahloqiy tarbiya me‘yorlari o‘rgatib boriladi.

Ekologik tarbiya - bu insonni tabiatga dastlabki qadam qo‘ygan kundan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, ahloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e‘tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilish orqali uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir. Bu ekologik tarbiya ham integratsiyaga yaqqol misol bo‘la oladi. Ekologik tarbiya tabiat fanida asosan olg‘a surilsa ya‘ni bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilsa, o‘qish, ona tili, matematika, odobnoma, musiqa darslarida uni mustahkamlab, to‘ldirib boriladi. Masalan: tabiat darsida ekologik tarbiya bir necha matnlar orqali ko‘rsatib berilgan 4 - sinfning darsligida “Suv va havoni muhofaza qilish”.

Suv va havo bo‘lmasa butun jonzot yashay olmasligini hamma biladi. Har qanday tirik organizm tarkibida suv bo‘ladi. Bolalarga ekologik tarbiya o‘qish darsida ham o‘rgatiladi. 4-sinf o‘qish darsligida “Buzilmagan uya” mavzusi bor. Bunda: bir bola bog‘da ishlayotgan bobosiga ovqat ola keta turib yulda o‘rtoqlarini uchratadi. O‘rtoqlari qush ovlagani ketayotganini aytadi va uni ham bu yo‘lga tortishadi. Lekin bola kechikayotgani va bobosining qorni ochib qolishi mumkinligi tufayli u o‘rtoqlari bilan ketmaydi. Bobosiga ovqat etkazib, ularga daraxt payvand qilgani yordamlashadi. Ular birga uyga keta turib yulda o‘rtoqlarini uchratadilar. O‘rtoqlari esa qush uyasini buzaman deb, daraxt butog‘iga o‘ralib, chumchuq bolalarini eyishga payt poylab turgan ilondan qo‘rqib, daraxtdan yiqilib qochib ketayotgan edilar. Bola bobosi bilan erda yoyilib yotgan chumchuq bolalariga yordam berib, ilonni o‘ldirib, o‘rtoqlarining qilgan

ishidan nafratlangan holda uyga qaytadilar. Endi ekologik tarbiyani **Ona tili** darsida ko'rib chiqsak. 4-sinf ona tili darsligida "Turg'un bobom" nomli she'r berilgan.

Bu she'rda ekologik tarbiya olg'a surilgan.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Boshlang'ich sinflarda qaysi fanlarni integratsiyalash mumkin?
2. Integratsiya so'zining ma'nosini tushuntirib bering?
3. Differentsatsiya atamasini izohlab bering?
4. Qanadaya integratsiyalashgan dars turlarini bilasiz?
5. Ta'limga bog'liq «Integratsiya» tushunchasi nechta ma'noga ega va ularni izohlab bering?
6. Inversiyaning mohiyatini tushuntirib bering?
7. Ona tili fanini qaysi fanlar bilan integratsiya qilish mumkin?

3.2. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasi.

Reja:

1. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish.
2. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning bosqichlari.

Tayanch tushunchalar: integratsiya, integratsiyalash, integratsiyalash ta'lim, integratsiyalashgan dars.

1. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish.

Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Bugungi kunda biror bir lug'atda integratsiyaning metodik jihatdan mazmuni haqida bironta so'zni uchratish mumkin emas. Lekin integratsiya

soʻzining maʼnosi hammamiz uchun yaxshi tanish. I. Kololojvari, L. Sechenikova lar integrastiyani metodik xarakterini «Integrativ darslarni qanday tashkil etish mumkin?» nomli maqolalarida quyidagicha tasniflaydilar: «...integrastiyalashgan darslarning imkoniyatlarini toʻrt yil oʻrganish natijasida bu metodikaning kelajagi katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Unga koʻra Oʻquvchilar ongida bizni oʻrab turgan dunyo haqida yanada toʻliq va atroflicha keng tasavvur hosil qilish imkoniyati tugʻiladi. Bolalar oʻz bilimlarini amaliyotda yanada faol qoʻllash imkoniyatiga ega boʻladilar, chunki bunda bilimlarning tub mohiyati yanada keng ochib berish imkoniyati, olamni bir butunlikda tasavvur qilish imkoniyati mavjud. Oʻqituvchi fanga oid bilimni berishda uni boshqa fanlar maʼlumotlari bilan solishtirish asosida uni yanada boyitadi, toʻldiradi».

Maktabda oʻqitiladigan barcha fanlarda integrastiyalashning maʼlum bir imkoniyatlari mavjud boʻlib, uni integrastiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bogʻliqdir. Shuning uchun pedagoglar va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarni barchasini eʼtiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo oʻqituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, Oʻquvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim. Oʻquv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integrastiya metodidan foydalanish ham boʻlishi mumkin. Oʻquvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega boʻlishlari bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin. Misol uchun katta hajmdagi matnni savodli koʻchirib olish uchun uni tez va toʻgʻri oʻqiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, oʻqituvchi oʻrgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning maʼlumotlaridan foydalanmasdan oʻrgatishi anchayin qiyin va zararli boʻlishi mumkinligini his qilishi zarur.

Axir biz dunyo yagona bir butun ekanligini his qilib borayapmiz, sababi bir mavzuni yoritish uchun boshqa bir sohalarga murojaat qilmasdan iloji yoʻqligi kunday ravshan boʻlib bormoqda. Bunday hollarda taqqoslash, qarama-qarshi qoʻyishdan foydalaniladiki, bu esa integrastiya hisoblanadi.

Dasturdagi ko'plab fanlarda «to'qnashish» mavjud: bunda ma'lum bir ob'ektni o'rganishda mavzular, muammolar, savollar bir xilligiga ro'para bo'linadi. Bularning barchasi esa hech bo'lmaganda bitta mavzuga doir integrastiyaga bo'lgan «talab»ni ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'limdagi o'qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar O'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Hozirgi kunda integrastiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Ulardan biri bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish g'oyasidir. Bugungi kunda mazkur masalada ko'plab xorijiy mamlakatlar olimlari boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyatini integrastiyalash muammolarini tadqiq etmayotganliklarida ko'rish mumkin.

Ular ilgari surayotgan ayrim ta'limotlar mohiyatiga to'xtalamiz. Integrativ ta'limning bosh maqsadi bolani tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan, bir so'z bilan aytganda dunyo bilan suhbatga tortish, mazkur suhbat mobaynida faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan tildan foydalanishga yo'naltirish g'oyasi, kichik maktab O'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi, integrativ ta'limning maqsadlaridan yana biri o'zi yashayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar,

ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o`zini o`rganuvchi, tekshiruvchi o`rniga qo`yadi.

Integrativlik insonning olam bilan o`zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida abstrakt bo`lgan uzoq va (kosmos, yulduzlar, er planetasi, katta bo`shliqlar va vaqt qa`ri) yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o`simlik dunyosi, ona Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati) haqida yaxlit tasavvur hosil qilishi. Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma`naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari).

Bir so`z bilan aytganda, shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlarini, tillarining o`ziga xos xususiyatlarini ochish - integrativ ta`limning asosiy mantiqidir.

Integrativ ta`lim oddiydan murakkabga, bilishdan - ilmga, tartibsizlikdan uyg`unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo`lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g`ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning erda paydo bo`lishiga murojaat qiladi. So`zlarni, sonlar sirini, yashil barglar, qadimiy afsonalar sirlarini ochishga intiladi. U makon va zamon bo`ylab sayohatga otlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochilishi kerak bo`lgan olamning go`zalligini va turli-tumanligini his qiladi.

Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g`oyalar bola tushunishi uchun qulay, obrazli mavzularda o`z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim bu integrativ ta`limning o`ziga xos xususiyatidir. Bunday o`yinlarga yondoshish 6-10 yoshdan boshlanadi. Bu xol ularni turli o`yin orqali murakkab bilim orttirish, badiiy, axloqiy masalalarni hal qilishiga yordam beradi.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qahramonlarini kiritilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ular bolani mavzudan mavzuga etaklab yurgandek, ular bilan bola inson bilan muloqot qiladi va yangi narsalarni bilib oladi.

Integrativ ta'lim shaxsga moslangan yo'nalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etishni nazarda tutiladi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda «O'z yulduzingni yoq», «Guldastada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat-e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, tug'ilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldasta bayram egasiga yoqadigan gul bilan boyiydi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini to'ldirish bilan birga egasiga (imzosi) ega bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi ishlar bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Darslar bolalarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini, materialini ushlab ko'rib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuyg'ularini (hid va ta'mni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar» o'yinlarini o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanishiga yo'ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san'at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim.

Bunga ertaklar o`qish, turli sahna ko`rinishlari qo`yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg`ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog`liq holda bolani faol harakat qilishga, o`z xolatini tana harakatlari, imo-ishoralar, raqs orqali ko`rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

3. Integrastiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasi

Integrastiyalashgan darslarni tashkil etish uchun avvalo qaysi darslar integrastiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalarida ko`rinadi.

Savod o`rgatish darslari (o`qish va yozishga o`rgatish).

Integrastiyalangan darslar. Bunday integrastiyalangan ta`lim – bu sinfdan tashqari o`qish. Bu erda yaxlit jarayon kechadi:

a) kitob o`qish asbobi sifatida o`qish darslarida olgan o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish;

b) matn ustida ishlash;

v) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Integrastiyalangan darslarga quyidagi fanlarning birikishini ko`rsatish mumkin: o`qish-rus tili, o`qish-tabiatshunoslik, o`qish-tasviriy san`at, o`qish-musiqqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik-mehnat ta`limi, matematika-mehnat ta`limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integrastiyalash o`qituvchi (ta`lim berish) va O`quvchi (ta`lim olish) harakatlarining mos kelishini ko`zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o`qituvchi va O`quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

2. Integrastiyalashgan darslarni tashkil etishning bosqichlari.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida integrastiyalashgan darslarni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjudligi aniqlandi:

1-jadval

No	Bosqich nomlari	Amalga oshiriladigan vazifalar mazmuni
	Maqsadli bosqich.	O`qituvchi umumiy maqsadni qo`yadi. O`quvchilar o`qituvchi boshchiligida predmetlararo bog`liqliklarni tushunib etishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular e`tiborlarini, fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o`zlashtirishga emas balki, ko`chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.
	Isbotlash bosqichida	O`qituvchi O`quvchilarni dunyoqarashini o`stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag`barlantiradi. O`quvchilar o`z irodalarini dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo`naltiradilar.
	Mazmunli bosqichi	O`qituvchi yangi O`quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O`quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o`zlashtiradilar.
	Vositalarni tanlash bosqichi	O`qituvchi bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi turli predmetlarni, ko`rgazmali vositalarni, darsliklarni, jadvallarni, savolnomalarni, amaliy vazifalarni tanlaydi. Bu vositalar O`quvchilarga ko`chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakteridagi integratsion masalalarni hal qilishga yordam beradi.
	Natijali bosqich	O`qituvchi ta`lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integrastiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo`llaydi. O`quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirib ularni amalda qo`llaydi.
	Nazorat qilish bosqichi	O`qituvchi bir-biri bilan bog`langan predmetlarga O`quvchilarning tayyorgarligini nazorat qiladi, o`zlashtirishlarini baholaydi. O`quvchilar o`z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo`yicha o`z-o`zini ham, ularni birlashtirish ko`nikmalarini ham nazorat qiladilar.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida boshlang`ich ta`limda integrastiyani amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalar aniqlandi:

2.1 -jadval

№	Usul va vositalar nomi
10.	Evristik suhbatlar.
11.	Umumiy suhbatlar.
12.	Ekskursiyalar.
13.	Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asar materiallari asosida nutq o`stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
14.	Ta`limning ko`rgazmali metodlari.
15.	Mustaqil ishlar.
16.	O`qish, matematika darslarida og`zaki rasm chizish.
17.	Imo-ishorali ko`rinishlar (pantomimalar).
18.	Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o`qish.
19.	Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda).
11.	O`lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, echish va boshqalar.

Ta`limni tabaqalashtirishni rad etmaydigan, uni to`ldiradigan integrastiyani ta`lim tizimiga kiritish, jamiyatga yaxlit dunyoqarashga, o`zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan`anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo`lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalab, kamolga etkazishda an`anaviy predmetlarga bo`lib o`qitishga nisbatan ko`proq yordam beradi.

O`quvchilar nutqini "Tabiatshunoslik" hamda "Ona tili" fanidan atamalar bilan boyitishda berilgan umumiy ma`noli atamalarning xususiy ma`nolarini topish, ularni esa o`z navbatida, muayyan uyadosh so`zlarga ajratish, "Tabiatshunoslik" sohasiga oid atamalarning ma`nosini sharhlash va izohlash, bunday atamalarning kichik izohli lug`atini tuzish, berilgan atamalar uyasini davom ettirish, atamalarni alifbo tartibida joylashtirish, har ikki fanga oid atamalarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar nutqni

rivojlantirishda muhim o`rin tutadi. Ayniqsa, berilgan maqollardan “Tabiatshunoslik” faniga oid atamalarni topish, ularni izohlash, ular asosida matnlar yaratish, bunday matnlarni dialoglarga aylantirish kabi ish turlari O`quvchilarning so`z boyligini oshirishga imkon yaratadi.

Sub’ekt fikr bayon etishi uchun uning o`z so`zlari bilan qayta hikoya qilishga doir mashqlar bajartiriladi. Bunday mashqlar O`quvchilarning nutqiy malakasini oshiradi, berilgan topshiriqqa ijodiy yondashtiradi, ularni fikrlashga undaydi. O`quvchilarning nutqiy ta’sirchan, mantiqiy jihatdan asosli, yoqimli bo`lishi uchun ularning nutq ijodlariga to`liq erkinlik berish taqozo etiladi. Buning uchun esa darsda xalq maqollaridan foydalanish ham samarali usul hisoblanadi.

Chunki o`zbek xalq maqollari, hikmatli so`zlar, ma’naviyatimizning go`zal ifodasidir. “Tabiatshunoslik” hamda ona tili darslarini uyg`unlashtirishda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq, bo`lib, bundan darsning mustahkamlash bosqichida foydalanish o`rinlidir. Maqoldan foydalanishning boisi shuki, u xalq donishmandligining lo`nda va ixcham ifodasidir. Ular O`quvchilarni mantiqiy fikrlashga, qissadan hissa chiqarishga, o`z maqsadini bayon etishga undaydi. Maqollar o`zbek tilining eng go`zal, boy, nozik badiiy xususiyatlarini bilib olishda va so`z boyligini oshirishda katta ahamiyati ega. O`qituvchi O`quvchilardan maqolning mazmunini sharhlatib qolmasdan, balki, maqolaga mos hikoyat, rivoyatlar aytirishlari mumkin yoki maqolga mos rasm chizishlari, shuningdek, Tabiatshunoslikdan o`tilgan qaysi mavzuga shu maqol mos tushishi ham so`ralsa, fanlararo integratsiya metodi ham amalga oshadi.

Maqol kishi esida qoluvchi, o`ylashga fikr mulohaza yuritishga undaydigan janrdir. Shuning uchun ham “Tabiatshunoslik” hamda ona tili darslarida undan foydalanish, uni bahs-munozaraga aylantirish, ma’nosini izohlatish kabilar foydadan holi emas.

Bunda sinf O`quvchilariga maqollar bo`lib beriladi. O`qituvchi darsning bu qismiga «Maqol – chaqilmagan yong`oq» deb sarlavha qo`yadi. O`quvchilarga o`ziga tushgan maqollarni ma’nosini aytib berishlari talab qilinadi. Berilgan

maqollarning tarkibida albatta o`simliklarga oid atamalar mavjud bo`lib, avvalo o`sha atamaning ma`nosi izohlanadi, so`ngra maqol sharhlanadi. Masalan,

Tol eksang, tagini ho`l qil,

Uzum eksang, tagini cho`l qil.

Maqolni quyidagicha izohlash mumkin:

Ma`lumki tol suvga chanqoq o`simlik bo`lib, u suv bo`ylarida yaxshi rivojlanadi. Uzum daraxti esa har doim ham suv talab qilavermaydi. Uni ba`ziba`zida sug`orib turish maqsadga muvofiqdir. Ho`l-namlik, cho`l-quruqlik. Daraxtlarning asosiy farqlanadigan xususiyati ho`l va cho`l ekanligi bo`lib, ular antonimlik xususiyatiga egadir. Har ikki so`z bir tovush bilan (h - ch) farqlanadi.

Ma`lumki, atrofimizni o`rab olgan tabiat tirik va o`lik jismlardan iborat. Ona tili ta`limi jarayonida tovushlarni o`rganishda ham “Tabiatshunoslik” darsi bilan bog`lash mumkin. Ya`ni talaffuzda bir-biriga o`xshash so`zlarni farqlashda, ularga ma`nodoshlar, uyadoshlar, zid ma`noli so`zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish samarali usullardan sanaladi.

Masalan, daraxt so`zining ma`nodoshlari: daraxt, nihol, ko`chat... uyadoshlari: terak, tol, archa, qayrag`och...

O`quvchilarga talaffuzimizdagi bir-biriga o`xshash so`zlarni farqlashda (“Tabiatshunoslik” faniga oid), ularga ma`nodosh, uyadosh, zid ma`noli so`zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berib, ushbu topshiriqlarni bajartirsak, bu O`quvchilarning kamol topishida, fikrlash darajasining o`shishida, bilim olishga havasini uyg`otishda nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3.3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsiyalashgan usulda ochiq dars ishlanmalarini tuzish ko'nikmasini shakllantirish

Reja:

1. Integratsiya haqida umumiy tushuncha.
2. Integratsiyalashgan usulda ochiq dars ishlanmasini tuzish.

Tayanch tushunchalar: Integratsiya, integratsiyalash, integratsiyalash ta'lim, integratsiyalashgan dars.

Hozirgi kunda o'quvchilarimizning har tomonlama malakali kadr yoki komil inson bo'lib yetishishida ularga ko'proq ilm va namunali tarbiya berish talab qilinmoqda. Bu bevosita maktabda o'qitiladigan fanlarni yaxshi o'qitish va shu fanni yoki mavzuni yanada yaxshi tushunishi uchun fanlarning bir-biriga bog'liq tomonlarini ochib berishi va fanlarni bir-biri bilan to'ldirib o'tilishi kerak bo'ladi. Demak, fanlarni bir-biri bilan to'ldirib, bog'lab dars o'tilsa, o'quvchi ushbu mavzu haqida har xil ma'lumotlarga va ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu esa fanda ilmiy tilda "integratsiya" deb ataladi. "**Integratsiya**" so'zi lotincha "integration"-tiklash, to'ldirish, "integer" butun, yaxlit so'zidan kelib chiqqan. Fanlar integratsiyalab dars o'tilsa. O'quvchi tez fikrlovchi, hozirjavob, bir deganda bir tushuncha haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lish hamda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari yaxshi shakllanib boradi. O'qituvchi har bir dars ishlanmasini integratsiyalashgan tarzda tuzib chiqishi va shunday dars o'tishi lozim. Quyida biz ana shunday dars ishlanmalaridan birini tavsiya qilaman. Bu integratsiyalashgan dars ishlanmasiga har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi amal qilishi kerak bo'ladi.

1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda (Atrofimizdagi olam) darsining ochiq dars ishlanmasi (tabiatshunoslik, matematika, tasviroy san'at)

Dars ishlanna

Sana: _____

Sinf: 1-sinf

Fanning nomi: Atrofimizdagi olam.

Darsning mavzusi: Biz va Tabiat.

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga "Biz va tabiat" mavzusini o'rgatish, biz va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushuntirish.

TK1. O'quvchilar o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

TK3. O'quvchilar hayot davomida o'qib o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borishni o'rgatish;

b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni tabiatga mehr-muhabbat, tabiatni asrab avaylash ruhida tarbiyalash;

TK3. O'quvchilar o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish;

TK5. O'quvchilar orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;

d) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi bilim ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, mehr tuyg'usini o'stirish.

TK4. Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ishtirok etish;

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi;

Darsda qo'llaniladigan metodlar: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, Klaster metodi, suhbat metodi, "Ingiliz tilida gapiramiz" o'yini.

Darsda qo'llaniladigan jihozlar: Darslik, mavzuga doir rasmlar, videolar, darslik asosida tayyorlangan slayd(taqdimot).

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism: a) O`quvchilar bilan salomlashish(Assalom alaykum aziz bolajonlar, bormisiz, omonmisiz, bugun darsga tayyormisiz? Bolajonlar bugun biz sizlar bilan atrofimizdagi olam 1-sinf darsini boshlaymiz.

b) Ingliz tilida gapiramiz o`yinini o`naymiz.

Tog` - Mountain

O`simlik - Plant

Asal - Honey

Asalari - Bee

Dorivor o`simlik - Spices

Bu so`zlar o`quvchilarga o`rgatilib, daftarlariga yozdiriladi. Yodlashga uyga vazifaga qo`shib beriladi).

O`tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifani tekshirish: Shundan so`ng uyga vazifa o`quvchilardan so`raladi.(Qani bolajonlar uyga vazifa nima berilgan edi. Barakalla. Uyga vazifa o`zbekistonda yetishtiriladigan va yetishtirilmaydigan mevalarni topib, yozib, daftaringizga rasmini chizib kelishingiz kerak edi. Qani hamma bajardimi. Barakalla. O`zimni dono, aqlli o`quvchilarim. Endi ekrandagi men topgan mevalar bilan siz topgan mevalarni solishtirib tekshirib chiqamiz. Qani hamma ekranga diqqat bilan qarasin. Birinchi O`zbekistonda yetishtiriladigan mevalarni topamiz. Diqqat bilan qaradikmi bolajonlar.

Sizlarga savolim bor bolajonlar. Ekrandagi sarlavhaga qaradikmi? Nega gapimizning o`rtasida kelgan O`zbekiston so`zini bosh harf bilan yozib qo`yibman? Qani kim aytadi? Barakalla bolajonlar. To`ppa- to`g`ri. Chunki O`zbekiston joy nomi bo`lganligi uchun har doim bosh harf bilan yoziladi. Barakalla. Endi topshiriqqa qaytamiz. Qani qaysi mevalar O`zbekistonda yetishtirilar ekan?

Uyga vazifani tekshirish.

Biz O`zbekistonda yetishtiriladigan mevalarni topdik.



Mevalarni nomlari bilan aytamiz. Qani boshladik.

Olma, shaftoli, xurmo, uzum, o`rik, anor, nok, behi, olxo`ri. Barakalla bolajonlarim. Ofarin. Ana endi O`zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalarni topamiz. Qani boshladik.

O`zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalar.



Mevalarni ketma ket nomini aytamiz. Banan, mandarin, kivi, apelsin, mango, ananas. Barakalla bolajonlar. Bu mevalarni qayerda yetishtirilishini bilamizmi bolajonlar? Demak,

Banan Afrikada yetishtiriladi.

Mandarin asosan Yaponiya, Xitoy, Ispaniya va Meksikada yetishtirilgan ekan.

Kivi ilk bor Xitoyda paydo bo`lgan ekan. Uning vatani Xitoy.

Apelsin – Xitoy olmasi ham deyilar ekan. Vatani Birma va Janubi-G`arbiy Xitoy.

Mango asosan Hindistonda yetishtiriladi. Vatani Janubiy-G`arbiy Osiyo.

Ananas asosan Afrika, Filippin da yetishtirilgan ekan. Ana ko`rdingizmi bolajonlar O`zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalar haqida ham ko`p ma`lumotlarga ega bo`lib oldik).

II. Yangi mavzuni tushuntirish: Uyga vazifa so`rab bo`lingach yangi mavzu bayoniga o`tiladi. (Ana endi biz sizlar bilan bolajonlar yangi mavzu

o`tamiz. Bugungi mavzumiz bolajonlar “Biz va Tabiat” mavzusi. Ekrandagi rasmga qaraymiz bolajonlar.



Rasmda nimalarni ko`ryapsiz. Barakalla bolajonlar rasmda tabiat qo`yniga sayohatga chiqqan bolalarni ko`ryapmiz. To`g`rimi? Barakalla. Bu rasmga qanday nom bersak bo`ladi bo`lajonlar? Ofarin, Barakalla. Bu rasmga “Tabiatga oshno bo`lgan bolalar ” deb nom qo`yamiz. Qani rasmda yana nimalarni ko`ryapmiz? Barakalla to`g`ri bolajonlar. Rasmda tog`lar, qir-adirlar, bepoyon kengliklar, yam-yashil tabiat, dov-daraxtlar va qushlarni ko`ryapmiz. Ana endi men sizlarga Vatanimizning tabiati haqida darsligimizda nima yozilganini o`qib beraman.

O`lkamiz tabiat in`omlariga juda boy. Bepoyon qir-adirlar, go`zal bog`rog`lar, maftunkor tog`lar, tiniq suvlar kishilarni doimo o`ziga chorlaydi. Kishilar bu xushmanzara joylarga sayohatga chiqadilar va rohatlanib dam oladilar. Vatanimiz tabiatini asrash va saqlab qolish bizning burchimiz hisoblanadi.

Diqqat bilan tingladingizmi bolajonlar. Bunday go`zal tabiat ni asrab – avaylash kimning burchi ekan bolajonlar? Barakalla bizning burchimiz. Tabiatni asrab-avaylash uchun qanday ishlarni qilishimiz kerak ekan va qanday ishlarni qilmasligimiz kerak ekan? Ekraniga diqqat bilan qarang bolajonlar.

Tabiatni asrab-avaylash uchun qilishimiz kerak bo`lgan ishlar.





Tabiatni asrab-avaylash uchun qilishimiz mumkin bo`lmagan ishlar.



III. Yangi mavzuni mustahkamlash: Ana endi bolajonlar sizlar bilan darsligimizda berilgan topishmoqni javobini topamiz. Sizga savolim bor bolajonlar topishmoq o`zi nima edi? Qani kim aytadi? Biz sizlar bilan o`qish fanidan topishmoqlar haqida ko`p gaplashganmiz. Barakalla, ofarin.

Topishmoq — xalq ogʻzaki ijodining eng qadimgi va ommaviy janri. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urfo-datlari maʼlum darajada oʻz ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin boʻlgan soʻroq majoziy shaklda ifodalanib, uning maʼnosi yashirincha boʻladi. Ana eslab ham oldik.



Egri-bugri tuyalar,
Bir-biriga suyalar.
Qotib turar yil sayin,
Bagʻrida xazina, sir.

Har doimgidek bugun ham qiziqarli mashg`ulot o`tkazamiz. Bugun sizlar bilan Gerbariy usuli yani turli daraxt barglaridan foydalanib kompazitsiya yaratamiz. Bu ish sizga notanish emas. Chunki biz texnologiya fanidan sizlar bilan bu ishni amalga oshirganmiz. Endi bu ishni Tabiat va biz mavzusida yaratamiz. Ekranga sizga namunalar berilgan. Yaxshilab e`tabor bering.



IV. Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash. Qani bolajonlar bugungi darsimiz hammaga tushunarli bo`ldimi? Nimalarni bilib oldik? Ana endi darsda ishtrok etgan o`quvchilarni baholaymiz.

V. Uyga vazifa berishva darsni yakunlash. Mana aziz o`quvchilarim darsimiz ham o`z nihoyasiga yetdi. Barchangizga bugungi darsimiz qiziqarli bo`ldi deb o`ylayman. Ana endi uyga vazifa beraman. Uyga vazifa “Tabiatga oshno” bo`lgan bola qanday sifatlarga ega bo`lishi kerak deb o`ylaysiz? Shu haqida yozing. Bundan tashqari berilgan Tabiat va biz kompazitsiyasini ham yarating.

Bu yozgan 1-sinf uchun atrofimizdagi olam darsining tabiat va biz mavzusiga bag`ishlangan dars ishlanmada integratsiya- fanlararo bog`liqliqdan foydalanganman. Bu dars ishlanmamni I bosqichi tashkiliy qismda ingliz tilida lug`at ishi o`tkazganman. Ya`ni bugungi darsga oida bo`lgan so`zlarni ingliz

tilida qanday nomlanishini aytib o`tganman. Nima uchun ingliz tili degan savolga keladigan bo`lsak, hozirgi kunda dunyo tillari ichida ingliz tili birinchi uchlikda turadi. Hozirgi kunda asosiy chop etilayotgan adabiyotlar ham chet eldan kirib kelayotgan foydali ma`lumotlar ham barchasi ingliz tilida. Shuning uchun hozirgi unib o`sib kelayotgan yosh avlodni tillarni yaxshi biladigan qilib tarbiyalash, tillarni o`rganishga qiziqish uyg`otish bu biz o`qituvchilarning vazifasi. Agar 1-sinfda atrofimizdagi olam darsi 33-soatni 1 yilda tashkil etsa, har bir darsda 5-10 ta yangi so`zni ingliz tilida aytilishini yod olsa, 1 yilda 150-350 tagacha yangi so`zni yodlay oladilar.

Bundan tashqari yana 2-bosqich uyga vazifani tekshirish va o`tgan mavzuni takrorlash qismida, uyga vazifani so`rash jarayonida tabiat fanini ona tili bilan ham bog`ladim. Bunda o`quvchilarning imlo qoidalariga amal qilishlarini tekshirib ko`rdim. Umuman olganda ona tili fanini har bir fan bilan bog`lab ishlatish mumkin. Sababi o`quvchilarning imlo qoidalariga amal qilib ishlashlari har bir fanning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Darsning 3-bosqichida yangi mavzuni mustahkamlashda qiziqarli topshiriq berishda atrofimizdagi olam fanini texnologiya fani bilan bog`ladim. Gerbariy qilish "Tabiat va biz" mavzusida topshirig`ini berdim. Umuman olganda hamma darsimiz ham boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o`tadi. Hozirgi kunda ayniqsa integratsiyasiz darslarni tashkil etib bo`lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. //Xalq so'zi gazetasi, 2017 .16 yanvar, № 11
2. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston” 2017.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70- modda.
4. Mirziyoyev.Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2017.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; “Sharq”,2020y.
6. R. A. Mavlonova va bq “Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innivasiya, integrasiya”, Toshkent ,”G.G'ulom” nashriyoti 2013-yil.
7. Mavlonova R., Rahmakulova N. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash. Toshkent 2011y.
8. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.
- 9.Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
10. Sayidahmedov N.S. O'qituvchining pedagogik tizimdagi faoliyati //Xalq ta'limi, 1993. № 6-7. – B. 9-12.
11. Mavlonova R., AbdurahimovaD. Pedagogik mahorat.T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil.
12. Mavlonova R., AbdurahimovaD. Pedagogik mahorat.T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil.

13. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika.Darslik
T.:O‘qituvchi 2008-yil
14. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma
T.:Fan va texnologiya 2012-yil
15. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik
T.: O‘qituvchi 1996-yil
16. M.Ochilov. Muallim qalb me‘mori. O‘quv qo‘llanma T.:O‘qituvchi.
2004-yil
17. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi
O‘zMKN.T.: 2009-yil.
18. Aleks Muur. Ta‘lim berish va ta‘lim olish: pedagogika, ta‘lim dasturi va
tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 93-110-betlar.
19. What teachers need to know about teaching methods. Peter WestWood,
Camberwell, Vic. : ACER Press, 2008.p 16-36.
20. Коллоложвари И. Сеченикова Л. Как организовать интегрированный
урок? (о методике интегрированием образования) //Народное образование.
- 1996. -№1. - С. 87-89.

Internet saytlar

<http://ziyonet.uz>

<http://edu.uz>

www.nadlib.uz

<http://teoriya.ru>

ILOVA TEST

1. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar?

A) tarbiya;

B) muhit;

D) irsiyat;

E) barcha javoblar to'g'ri;

2. „Interaktiv” tushunchasining ma'nosini toping?

A) ingliz tilidagi „interakt” so'zidan kirib kelgan. „Inter” –bu „o'zaro”, „akt” – harakat qilish; Interaktiv o'zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, komyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (mulokat) rejimida bulishni bildiradi.

B) ingliz tilidagi “interact” so'zidan olingan bo'lib o'yin degani; Interaktiv o'zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, komyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (mulokat) rejimida bulishni bildiradi.

D) lotin tilidagi „interakt” so'zidan kirib kelgan. „Inter” –bu „o'zaro”, „akt” – harakat qilish; Interaktiv o'zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, komyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (mulokat) rejimida bulishni bildiradi.

E) grek tilidagi „interakt” so'zidan kirib kelgan. „Inter” –bu „o'zaro”, „akt” – harakat qilish; Interaktiv o'zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, komyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (mulokat) rejimida bulishni bildiradi;

3. Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish xamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rangA) barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni xal etish jarayonining dastlabki boskichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy

tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazilmutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad taxsil oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik maqorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'lik bo'ladi. Qaysi metodning tavsifi berilgan?

A) «Fikriy xujum» («Mozgovaya ataka») metodi;

B) «Fikrlarning shiddatli xujumi» metodi

D) «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi;

E) «Videotopishmoq» metodi;

4. Loyihalash tizimi ketmaA)ketligi to'g'ri berilgan javobni toping?

A) maqsad, g'oya, bashoratlash, rejalashtirish;

B) go'ya, maqsad, rejalashtirish,;

D) rejalashtirish, g'oya, maqsad, kutilgan natija, taxmin qilish;

E) g'oya, maqsad kutilgan natija, taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish

5. Loyiha natijasi deganda nima tushuniladi?

A) bu (laboratoriyalar, ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalari, redaksiyalar va boshqalar);

B) o'quv jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo'lgan axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan.

D) buklet, nashr, Internet sahifasi shaklidagi taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan axorotdir.;

E) barcha javoblar to'g'ri;

6. Pedagogika qaysi so'zdan olingan? Lug'aviy ma'nosini izohlang

A) yunoncha "payne agoyen" bola yetaklovchi "didaskal" men o'qitaman so'larining qo'shiluvidan hosil bo'lgan

B) nemischa "pedagogika" bolalarni yetaklash degan ma'noni bildiradi

D) franso'z tilidan olingan bo'lib tarbiyalovchi shaxs talqin etiladi.

E) ingliz tilidan olingan bo'lib ta'lim bilan shug'ullanuvchi shaxs.

7. Qaysi texnologiya o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkurini rivojlanishiga ta'sir etadi?

A) Innovatsion texnologiya

B) Axborot kommunikatsiya texnologiyalari

D) Ped texnologiya

E) Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi

8. Ta'lim tizimining poydevori qaysi ta'lim hisoblanadi?

A) Maktabgacha ta'lim

B) Maktabdan tashqari ta'lim

D) Boshlang'ich ta'lim

E) O'rta maxsus, kasbA)hunar ta'limi

9. Interfaol metodi iborasi qanday ma'noni anglatadi?

A) Inglizcha «interactive» so'zidan olingan bo'lib, o'quvchilarda faollikni oshirish va bilimlarini faol o'zlashtirishni nazarda tutadi

B) Inglizcha «interactive» so'zidan olingan bo'lib, qisqartma va ta'lim shakli belgilaridan foydalanish degan ma'noni anglatadi

D) Inglizcha «interactive» so'zidan olingan bo'lib, ta'lim jarayonida darsni innavatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish degan ma'noni anglatadi

E) To'g'ri javob berilmagan

lib tashlanadi, uning faolligi ta'minlanadi.

F) To'g'ri javob berilmagan

10. Qaysi dars jarayonida o'quvchi mustaqil bo'lib, turli psixologik to'siqlar olib tashlanadi?

A) An'anaviy

B) Noan'anaviy

D) Ta'limiy

E) Tarbiyaviy

Pedagogik texnologiyaning vazifalari nimalardan iborat?

11. Pedagogik texnologiyaning mazmuni nimalardan iborat?

- A) Mazmun mohiyatni to`la ochib berish
- B) O`qituvchining o`quvchilarga vaziyatlardan chiqishiga yordam berishi
- D) O`qituvchi tomonidan o`quvchilarga aqliy, ruhiy, axloqiy ihatdan turli ta`limiy usullarda ta`sir o`tkazishdan iborat
- E) A va B

12. Boshlang`ich sinf o`quvchisining faolligini qanday usullar bilan rivojlantirish mumkin?

- A) Darsdan tashqari ekspeditsiyalar bilan
- B) Dars o`tishda til o`rgatish bilan
- D) Interfaol metodlar bilan
- E) Ta`lim jarayonida dars o`tish bilan

13. AKTA) bu?

- A) chizma, jadval, diogrammalarni qo`llash usuli
- B) Turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish
- D) O`quv protsessining kundalik jarayoni
- E) Ta`lim jarayoniga tizimli yondashish usuli

14. Qaysi metod kalit so`zlari orqali o`qitish degan ma`noni bildiradi?

- A) “blits so`rov” metodi
- B) “klaster” metodi
- D) “interfaol” metod
- E) “insert” metodi;

15. Qaysi o`qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo`ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma`lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo`lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo`ladi, «gap nimada?» degan savol tug`iladi?

- A) Muammoli o'qitishda;
- B) Masofaviy o'qitishda;
- D) Loyihali o'qitishda;
- E) Modelli o'qitishda;

16. Muammoli o'qitish deganda nima tushuniladi?

- A) mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi;
- B) dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanib o'tish tushuniladi;
- D) muammoni qo'yish va uni tahlil qilish faoliyati tushuniladi;
- E) muammoli jarayonlar tashkil etilgan jarayonni o'zi tushuniladi;

16. Qaysi o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi?

- A) Muammoli o'qitishda;
- B) Masofaviy o'qitishda;
- D) Loyihali o'qitishda;
- E) Modelli o'qitishda;

17. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi. Qaysi o'qitish metodi?

- A) Muammoli o'qitishda;
- B) Masofaviy o'qitishda;
- D) Loyihali o'qitishda;
- E) Modelli o'qitishda;

18. Muammoli ta'limning vazifalari to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) Muammoli ta'lim o'quvchilar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar kuchi orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan holda tashkil etish;

B) Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning bahslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analizA)sintez faoliyatiga asoslanadi. Bu ta'limning tadqiqotchilik turidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiyA)tadqiqot uslubini shakllantirishdir;

D) Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiyA)tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

E) barcha javoblar to'g'ri;

19. O'qitishning mohiyati shundaki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir. Bu qaysi o'qitishning mohiyati shunday?

A) Muammoli o'qitishda;

B) Masofaviy o'qitishda;

D) Loyihali o'qitishda;

E) Modelli o'qitishda;

20. Muammoli o'qitish ketmaA)ketligi to'g'ri berilgan javobni toping?

A) maommoli vaziyat, vaziyatlarni tahlili, farazlarni yuzaga chiqarish, yechimni tekshirish;

B) farazlarni yuzaga chiqarish, maommoli vaziyat, vaziyatlarni tahlili, yechimni tekshirish;

D) yechimni tekshirish;maommoli vaziyat, vaziyatlarni tahlili, farazlarni yuzaga chiqarish,

E) vaziyatlarni tahlili, maommoli vaziyat, farazlarni yuzaga chiqarish, yechimni tekshirish;

21. Muammoli vaziyatlar mazmuniga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi?

A) Faoliyat usuli noma'lum – uni aniqlash kerak. Faoliyatni bajarish shartlari noma'lum – uni aniqlash kerak.

B) Maqsad noma'lum – uni aniqlash kerak. Faoliyat ob'ekti noma'lum – uni aniqlash kerak.

D) Faoliyat usuli noma'lum – uni aniqlash kerak. Faoliyatni bajarish shartlari noma'lum uni aniqlash kerak.

E) barcha javoblar to'g'ri;

22. Muammoli vaziyatlarni qanday turlari mavjud?

A) Kutilmagan favqulodda – hayratlanarli vaziyat, tanlash vaziyat,

B) nizo vaziyat, faraz qilish vaziyati, inkor qilish vaziyat;

D) nomuttanosiblik vaziyati. (amaliy va nazariy bilimlarning birA)biriga tugri kelmasligi, yoki eski bilimlarning yangi bilimlarga to'g'ri kelmasligi, Izlanuvchi va tadqiqot ishlari o'tkazish ham muammoli vaziyat

E barcha javoblar to'g'ri;

23. Muammoli o'qitishning bosh psixologikA)pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat?

A) talabani fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

B) muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi; nostanart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;

D) kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega;

E) barcha javoblar to'g'ri;

24. EDVAYZER so'zining ma'nosini toping?

A) (TutoremA)lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi.

Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi;

B) (advisor)A)fransuzcha “avisen”“o‘ylamoq”) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi;

D) (ingliz tilida .facilitator, latinchafacilis–engil, qulay)A) guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi;

E) Qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi;

25. O'qituvchilarga o'rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o'qitish jarayonida o'qituvchilar va talablarning interaktiv o'zaro aloqalarini, tinglovchilarga o'rganilayotgan materialni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o'qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko'nikmalarini baholashni ta'minlovchi axborot texnologiyalari to'plami. Ushbu ta'rif qaysi ta'lim haqida?

A) Muammoli ta'lim;

B) Masofaviy ta'lim;

D) Loyihali ta'lim;

E) Modelli ta'lim;

26. Integratsiyaning tarkibiy qismlari berilgan javobni toping?

A) Ob'ektga doir integratsiya, Tushunchaga oid integratsiya;

B) Nazariyaga oid integratsiya, Metodologik integratsiya;

D) Muammoli integratsiya, Faoliyatga oid integratsiya, Amaliy integratsiya;

E) barcha javoblar to'g'ri;

27. Amaliy integratsiya ta'rif to'g'ri berilgan javobni toping?

A) turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar.

B) munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar;

D) turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrofA)muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar);

E) u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi;

28. Metodologik integrastiya ta'rifi to'g'ri berilgan javobni toping?

A) munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar;

B) turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrofA)muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar);

D) u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi;

E) u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integrastiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo'llanilishi kabilar kiritiladi;

29. Tushunchaga oid integrastiya ta'rifi to'g'ri berilgan javobni toping?

A) bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar)lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi;

B) turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrofA)muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar);

D) u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi;

E) u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integrastiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi

tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo`llanilishi kabilar kiritiladi;

30. Qaysi ta'lim texnologiyasi yaqin bo'lgan fanlar yoki mavzularning qo'shiluvidan tashkil topgan?

A) integral ta'lim texnologiyasi

B) ped texnologiyasi

D) modulli ta'lim texnologiyasi

E) o'qitish texnologiyasi

31. Qaysi texnologiya mediatexnologiya deyiladi?

A) dasturtirilgan ta'lim texnologiya

B) zamonaviy ta'lim texnologiya

D) o'quv jarayoni texnologiya

E) ped texnologiya

32. Qaysi texnologiyada chizma, jadval, diogrammlar qo`llaniladi?

A) orgonayzir texnologiyasi

B) modulli ta'lim texnologiya

D) integral ta'lim texnologiya

E) ped texnologiya

33. Qaysi metod kalit so'zlari orqali o'qitish degan ma'noni bildiradi?

A) "interfaol" metod

B) "blits so'rov" metodi

D) "klaster" metodi

E) "insert" metodi

34. Sinxron ta'lim qanday ta'lim?

A) masofaviy

B) elektron ta'lim

D) onlayn ta'li

E) inovatsion ta'lim

35. Inversion so'zining ma'nosi?

- A) almashtirish
- B) moslashtirish
- D) ijodiy
- E) bilishga oid

36. Inklyuziv so'zining ma'nosi?

- A) tenglik;
- B) yaxlitlash;
- D) ijodiy;
- E) bilishga oid;

37. Fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Qaysi tushunchaning ta'rifi?

- A) integratsiya;
- B) klaster;
- D) integral;
- E) orgonayzir;

38. Integrativ ta'limning asosiy mantiqi nima?

- A) shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlarini, tillarining o'ziga xos xususiyatlarini ochish;
- B) Integrativ ta'lim oddiydan murakkabga, bilishdan A) ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi;
- D) Bola dunyo yaralishining «g'ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning erda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlarni, sonlar sirini, yashil barglar, qadimiy afsonalar sirlarini ochishga intiladi;
- E) Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g'oyalar bola tushunishi uchun qulay, obrazli mavzularda o'z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim bu integrativ ta'limning o'ziga xos xususiyatidir;

39. Boshlang'ich sinflarda qaysi fanlarni integratsiya qilsa bo'ladi?

A) ona tili, o'qish;

B) rasm, iqtisod, texnologiya,

D) odobnoma, jismoniy tarbiya, matematika;

E) barcha javoblar to'g'ri;

40. Boshlang'ich sinflarda qaysi fanlarni integratsiya qilsa bo'ladi?

A) ona tili, o'qish;

B) rasm, iqtisod, texnologiya,

D) odobnoma, jismoniy tarbiya, matematika;

E) barcha javoblar to'g'ri;

A.I. HAYITOV

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA
VA INTEGRATSIYASI**

(Uslubiy qo'llanma)

Bosishga ruxsat etildi. 11.12.2021 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog'i 6.5, Adadi 100. Buyurtma № 11-12

Bahosi kelishuv asosida

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi 27 A-uy.